OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR

“O‘zbekko‘mir” AJda axborot ochiqligi, jamoatchilik bilan muloqot va korporativ axborot resurslari samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ochiq ma’lumotlar sifati va mas’uliyatini oshirish. Mas’ul tarkibiy bo‘linmalar tomonidan ma’lumotlarni o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli taqdim etish, eskirgan axborotlarni yangilash hamda ijro intizomini kuchaytirish.

2. Korporativ saytni takomillashtirish. Moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish va investisiya ko‘rsatkichlarini yillar va choraklar kesimida taqqoslash imkonini beruvchi jadval, diagramma va infografikalar bilan boyitish. Saytning barcha tildagi versiyalarini muvofiqlashtirish.

3. Brifing va matbuot tadbirlari sifatini oshirish. Tadbirlarda Axborot xizmati vakillari bilan bir qatorda tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlari hamda sohaviy mutaxassislar ishtirokini ta’minlash, taqdim etiladigan ma’lumotlarning ishonchliligi uchun mas’uliyatni kuchaytirish.

4. Axborot xizmatining funksional vazifalarini maqsadli tashkil etish. Korporativ ma’lumotlarni yig‘ish, saytga joylashtirish va yangilash vazifalarini tegishli ixtisoslashgan bo‘linmaga o‘tkazish, Axborot xizmatini asosiy faoliyatiga yo‘naltirish.

5. Axborot xizmatining kadrlar va texnik salohiyatini mustahkamlash. Veb-resurslar bo‘yicha mutaxassis lavozimini tiklash, xizmat avtomashinasi, kompyuter, foto-video texnika va zarur orgtexnika bilan ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash.

6. Zamonaviy axborot loyihalarini yo‘lga qo‘yish. “Ko‘mir ta’minoti: ochiq jarayon”, “Mutaxassis minbari”, “Yil sarhisobi — ochiq raqamlar” kabi loyihalar orqali ishlab chiqarish, ko‘mir ta’minoti va korxona faoliyatini videorolik, infografika hamda ochiq muloqotlar vositasida yoritish.

7. Hududlarda axborot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish. Ko‘mir ta’minotidagi yangi tartiblarni aholi va tadbirkorlarga tushuntirish, MyCoal.uz platformasidan foydalanish bo‘yicha amaliy uchrashuvlar, o‘rganishlar va videoqo‘llanmalar tashkil etish.

8. Jamoatchilik nazorati va OAV bilan hamkorlikni kengaytirish. Jamoatchilik kengashi faoliyati, muhokamalar va takliflar ijrosini muntazam yoritish, ishlab chiqarish ob’yektlariga press-turlar tashkil etish, mahalliy va xorijiy delegatsiyalar tarkibiga Axborot xizmati mutaxassislarini kiritish.

9. Sohaviy nashr faoliyatini rivojlantirish. “O‘zbekko‘mir” gazetasining axborot tarqatishdagi o‘rnini inobatga olib, nashr faoliyatini professional tashkil etish uchun bosh muharrir shtat birligini joriy etish masalasini jadallashtirish.

10. Ochiqlik bo‘yicha takliflar ijrosini nazorat qilish. Belgilangan vazifalar bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linmalar va muddatlarni belgilash, ijroni har chorakda tahlil qilish hamda natijalarini rahbariyat muhokamasiga kiritish.

“O‘zbekko‘mir” AJ Axborot xizmati
2026-yil, 11-noyabr